

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11187485>

“BOBURNOMA” ASARI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Majidov Umedjon Abduraxmonovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

majidovumedjon1985@gmail.com

ANNOTATSIYA

“Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotning mashhur qomusiy asarlaridandir. Mazkur asarda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlar jamlangan. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergen voqealarni; ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Afg‘onistonda ro‘y bergen hodi salarni; uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir lavhalarni o‘z ichiga oladi. “Boburnoma” – 1500 ga yaqin tarixiy shaxs hamda o‘simglik va hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan qomusiy asar bo‘lib, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Ushbu maqolada biz “Boburnoma”ni bugungi kunda adabiyot va boshqa sohalarda tutgan o‘rnini haqidagi muhokama qilamiz.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, Movarounnahr, Xuroson, Eron, Hindiston, qomusiy asar, ruboiy.

ABSTRACT

“Boburnoma” is one of the famous encyclopedic works of Uzbek and all-Turkish literature. It contains a lot of information about the peoples of Movarounnahr, Khorasan, Iran and India. The work consists of three parts, the first - the events that happened in Central Asia in the second half of the 15th century; the second - events that took place in Kabul, that is, Afghanistan, at the end of the 15th century and the first half of the 16th century; and the third contains the history of the peoples of North India in the first quarter of the 16th century. "Boburnoma" is an encyclopedic work containing about 1500 historical figures and hundreds of rare information about flora and fauna, translated into more than 20 languages. In this article, we will discuss the role of “Boburnoma” in literature and other fields today.

Key words: “Boburnoma”, Movarounnahr, Khurasan, Iran, India, encyclopedic work, rubai.

KIRISH

Sharqu G‘arbni o‘zaro bog‘lagan, buyuk sivilizasiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o‘rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkiru jahongir sarkarda va podshohlar yetishib chiqqan. Ular tomonidan yaratilgan boy madaniy va ma’rifiy meros nafaqat bizga, balki butun bashariyat tamadduni uchun xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Hozirgi vaqtida jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar... buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan mutafakkir hamda olimlarimiz asarlarni, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shtan beba ho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir” [1,35] deganlari buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarni yanada kengroq o‘rganish uchun imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Ana shunday buyuk ajdodlarimizdan bir Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) bo‘lib, uning “Boburnoma” asari dunyo bo‘ylab yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lgan. Bobur mazkur asarini yozishni o‘n ikki yoshida, ya’ni Farg‘ona mulkiga 1494 yili podshoh bo‘lganidan boshlaydi [2,4].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda biz lingvistik tadqiqotni amalga oshirishning bir qancha usullaridan foydalandik. Xususan, tadqiqot ilmiy va sof lingvistik tadqiqot usullarining o‘zaro birlashgan shaklida amalga oshirildi.

MUHOKAMA

Asarning to‘rt yarim asrdan buyon jahoning yetakchi olimlari tomonidan chuqur o‘rganilib kelinayotganligi hamda to‘rt marotaba forsiy, to‘rt marotaba ingliz, ikki martadan olmon, fransuz, turk tillarida, to‘rt topqir rus tilida, bir martadan golland, italyan, hind, urdu, yapon, polyak, uyg‘ur va boshqa tillarda chop etilgani ham uning qadr-qimmatini qanchalik yuksakligini belgilab beradi.

“Boburnoma” tom ma’nodagi ensiklopedik asar. Uning haqiqatligi shundaki, mazkur asarda Bobur asosan o‘zi ko‘rgan-kechirgan, bilgan narsalarni bayon qiladi. Eshitgan yoki adabiyotlardan foydalilanigan bo‘lsa, albatta, ularni izohlab o‘tadi. “Boburnoma”dan siyosatchilar, etnograflar, aholishunoslar, geobotaniklar, zoogeograflar, iqlimshunoslar o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan juda ko‘p asos materiallarni ajratib olishlari mumkin. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, u tom ma’noda aholi geografiyasiga va uning ajralmas qismi bo‘lgan shaharshunoslikka (*geourbanistika*) bag‘ishlangan noyob asardir.

Bobur bayon qilgan hamma voqealar ma’lum bir davr va geografik hududda ro‘y bergen. U tilga olgan shahar, tuman, viloyat, davlatlar hozir ham mavjud,

aksariyatining nomlari o‘zgargan, ayrimlari esa yo‘q bo‘lib ketgan, ba’zilari kichik qishloq holiga kelib qolgan yoki yirik shaharlarga mubaddal bo‘lgan.

Bobur o‘z asarida tabiat, jamiyat va voqelik nafosatini, shaxs, urf-odatlar va marosimlar, me’morchilik, bog‘, adabiyot va san’at, xullas jami nafosatni chuqur his qiladi va teran tahlil etadi.

“Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotning mashhur qomusiy asarlaridandir. Mazkur adabiy manbada Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko‘plab noyob ma’lumotlar keltirilgan.

Asar uch qismdan iborat:

birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni;

ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Afg‘onistonda ro‘y bergan hodisalarini;

uchinchisi – Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir voqealarni o‘z ichiga oladi[3,2].

Muallif “Boburnoma”da o‘zining barcha yaxshi-yu yomon xislatlarini to‘la-to‘kis yashirmay bayon qilgan. Bobur ko‘pgina asarlarida betaraflikni tanlagan. Shu bois aksariyat o‘quvchi Boburni jasur sarkarda sulola asoschisi sifatida ko‘rmasligi mumkin.

Biroq Boburning do‘st-dushmanlarini tasvirlashdagi qiyofasini mutlaqo xolis bo‘lgan deb bo‘lmaydi. Masalan, Shayboniyxonning holatini tasvirlashda o‘z histuyg‘ulari ta’siriga tushib, Shayboniyxonning obro‘-e’tiborini ataylab pasaytirganligini yaxshi tushunish mumkin.

“Boburnoma” o‘tgan asrning 90-yillarida ikki yuz ming nusxada chop etilgan edi. 2002-yilda esa Xalqaro Bobur jamg‘armasi homiyligida “Boburnoma”ning ilmiy nashri chop qilindi. Quyida ana shu nashr yuzasidan ayrim fikr-mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

“Boburnoma”da 1,5 mingga yaqin tarixiy shaxs hamda o‘simplik va hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma’lumotlar to‘g‘risida bayon qilingan. Mazkur shoh asar 20 dan ziyod tillarga tarjima qilingan.

“Boburnoma”ni sodda va qayta ko‘rib chiqilgan tili, tabiiy ohangi, rang-barang va jonli tasvirlari bilan chig‘atoj lafzining eng yaxshi namunalaridan biri, turkiy tilning eng ta’sirli nasriy asarlaridan biri deb hisoblash mumkin.

“Boburnoma” aslida dunyo hukmdorlari uchun hayotiy tajriba va dastur bo‘lib, ilm olishda yaxshi qo‘llanmadir. Unda hayotiy tajribalar, zamon talabalari uchun to‘g‘ri fikrlar va qarashlar mavjud.

“Boburnoma” asarining turkcha matni dunyoning ayrim kutubxonalarida bir necha nuxsalar mavjud.

Jumladan, Toshkent, Anqara, Sank-Peterburg, Parij, Dehli va London shaharlarida turkcha matnlari saqlanib kelinmoqda [4,83].

Shuningdek, Kobul (*Afg'oniston*) va Tehron (*Eron*) shaharlarida “Boburnoma”ning fors tiliga tarjima qilingan nusxalari mavjud.

“Boburnoma”ni tarjima qilgan ingliz olimi Uilyam Erskin “Osiyoda saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fanga, san’atga mehri va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi” deb ta’rif bergan.

Boburning ulkan ijodkorligi shundaki, asarlarida shaxsiy kechinmalarini bayon etish barobarida yuksak g‘oyalar, umuminsoniy qadriyatlarni olg‘a suradi. Uning ijodida, xususan, she’riyatida ona yurtni chin dildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, musofirlik iztiroblaridan hasrat, yor-birodar sog‘inchi katta nafosat bilan badiiy talqin etiladi.

Boburning Hindiston mamlakatiga yurishi, aniqrog‘i, bu o‘lkani o‘z tasarrufiga kiritishga intilganini ayrim adabiyotshunoslar Vatandan ayriliq sifatida talqin etsalar, boshqalari sarkarda Boburning Amir Temur sultanatini qayta tiklash uchun qilingan yurishi sifatida baholaydilar. Aslida, har ikkala fikrning ham asosi bo‘lsa-da, ikkinchisi ustunlik qiladi. “Boburnoma”da mazkur masalaga anchagina oydinlik kirituvchi parcha bor. U ham bo‘lsa, Hindistonning shimoliy qismini egallagan, Ibrohim Lo‘diy va boshqa hind sarkardalari ustidan g‘alaba qozongan, ammo bu o‘lkaning barcha hududlarini hali egallahsha ulgurmagan Boburning to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyun Mirzoning elchilarga bildirgan fikri mavjud. “...Tengri taolodin umidvormizkim, o‘shul yaqinda Hinduston viloyati qo‘lga kirgay. Havoxoh va yaxshi farox havsalalarimizdin Hinduston viloyatig‘a qo‘yub, o‘zumuz mavrusiy viloyatimizga borg‘aymiz. Va kerakkim, bori xalqimiz bu yurushda, Humoyung‘a yo‘ldosh bo‘lub, ixlos ko‘rsatgaylor” [5,186], deb yozadi u.

Ushbu parchadan Boburning ichki kechinmalari, ruhiy holatini faqat nasriy matn talabi bilan his etamiz. Bunda adib o‘zi shoh bo‘lsa-da, yakkalikka bardosh va chidam bergenligi, o‘zini g‘arib sezganligi haqida umuman so‘z yuritmaydi, balki buni Vatanga qaytish orzusi orqali ifoda etadi, xolos. Quyidagi ruboiy esa, aynan shoh, adib Boburning ichki olamini o‘zida mujassamlagan, “Boburnoma” matnini shu jihatdan to‘ldirganligini ko‘ramiz.

Yod etmas emish kishini g‘urbatta kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatta kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatta sevinmas emish, albatta, kishi.

Bobur ko‘z o‘ngida yuz berayotgan voqeа va hodisalarni ziyraklik bilan kuzatgan. O‘zini qiynagan his-tuyg‘ularni chuqur tanqidiy tahlil qilib, ularni yaxshilik vaadolat, haqiqat va go‘zallik tamoyillariga xizmat qilishga yo‘naltira olgan.

Bobur turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega podshoh bo‘lgan. Barcha fazilatlari orasida shijoat va muruvvati ustunroq turgan. Turkiy she’rni

Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas degan ta'riflar mavjud.

Ijod va san'at odamlariga bunday mehrli munosabat bejiz bo'limgan, albatta. Boburning o'zi tabiatan ijodkor bo'lgan. Navqironlik yillaridan umrining oxirigacha ijod bilan shug'ullangan. Hech bir sharoit va vaziyatda ijoddan to'xtamagan, natijada avlodlarga har jihatdan takomilga yetkazilgan boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan.

Muallif o'zi bilmagan holda "Boburnoma"da o'zining buyuk sarkardaligi, keng fikrli tarixnavis, yetuk adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalarga to'g'ri yondosha oladigan buyuk olim, dunyo ma'rifati ravnaqiga munosib hissa qo'sha olgan qahramon ekanligini isbotlagan.

Muxtasar aytganda, "Boburnoma" o'quvchiga Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari tarixi, o'sha davrda boburiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi.

Agarki kimda ushbu shohasarni "Yurak qoni bilan yozilgan asar" degan ta'rifga ozgina bo'lsa-da shubha va ishonchsizlik hosil bo'lsa, "Boburnoma"ni o'qisin. Uni o'qib adog'iga yetmaysiz. Har mutolaa qilganingizda o'zingiz uchun yangi-yangi ma'lumotlarni topasiz. Va har gal kitobxon sifatida o'zingizni yangidan kashf qilasiz.

Yuqorida bayon etilgan dalil va mulohazalardan shuni bevosita anglash mumkin shoh asar "Boburnoma"ning bugungi va kelajakdagi ahamiyati dengiz kabi bepoyondir.

Bobur va uning adabiy merosini o'rganish bugungi va kelajak avlodimiz uchun mardlik, jasorat, Vatanga bo'lgan sadoqat va ruhiy-axloqiy tarbiya maktabi sifatida katta ahamiyatga ega.

Shu maqsadda Bobur xalqaro fondi tashkil qilinib muntazam ushbu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Boburning boshqa sharqlik podshohlardan farqli va bizni hayratga soladigan xislatlari benihoyat ko'pki, bir maqola doirasida ular haqida batafcil fikr bildirish mushkul. Mulohazalarimizni hind tarixchisi Shri Ram Sharmaning bu borada xolisona bayon etgan ushbu fikri bilan yakunlaymiz: "Boburiylar Hindistonga fotih sifatida kelgan bo'lsalar ham, ular qo'l ostidagi mahalliy hindlarning hurmatini qozonganlar va ularga ma'qul bo'lgan an'ana va udumlarni yo'lga qo'ya oldilar. Har kuni ertalab podshohning "Jarohai darshon" marosimida fuqaro oldida ko'rinish berishi (*salomga chiqishi*), arzdorlarning podshoh qabuliga shikoyat bilan kira olish imkoniyatiga ega bo'lishi, ma'muriy idoralar rahbarlari bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni aniq va ravshan belgilab berilishi... mamlakatni boshqarishdagi adolatli ishlari deb qarash kerak" [6,64]. Bu guvohliklar yana bir bor Boburning shaxsiyatiga oid ayrim qarashlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Toshkent .“O‘zbekiston”. 2017.
2. Jalilov S. Shahzoda Bobur.Toshkent. “Movarounnahr”. 2013.
3. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2017 yil, 2-son.
4. Qodirov P. “Bobur”. Toshkent. “Sharq”. 2002.
5. Z.M.Bobur “Boburnoma”. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2008.
6. G‘.Sotimov, “Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri”, Toshkent, 2009.